

O'ZBEK BADIY MATNLARDAGI KOGNITIV METAFORALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xamida JURAQOBILOVA*

Annotatsiya: Har qanday badiiy asar tili tasviriy vositalarning nutqiy qimmatini, nutqning jozibadorligini ta'minlash, shuningdek, badiiy ta'sirchanligini oshirishdagi imkoniyatlari til sohiblarining dunyoni o'zgacha his etishi bilan belgilanadi. Metafora badiiy matnning markaziy elementi hisoblanib, boshqa badiiy tasvir vositalariga qaraganda ancha faol bo'lib, uning ijodiy va emotsional ta'sirini shakllantiradi hamda asarning jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Metafora ma'lum bir madaniyatning ijtimoiy-madaniy e'tiqodlari va munosabati orqali shakllanadi. An'anaviy tilshunoslikda, xususan adabiyotshunoslik doirasida badiiy, poetik metafora tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklaridan boshlab metafora inson hayotining barcha jabhalariga chuqur singib ketganligini bu sohada olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlar misolida ko'rish mumkin. Bunday yondashuvlarning shakllanishiga kognitiv fanning rivojlanishi katta hissa qo'shdi, mazkur tadqiqot ham aynan shu doirada amalga oshirilgan. Kognitiv fanda metaforaning ahamiyati uning fundamental bilish mexanizmi sifatida tushunilishi bilan bog'liq bo'lib, uning til vositasidagi ifodalari inson ongidagi mental tuzilmalarni aks ettiradi. Shu sababli metaforalar orqali insonning borliqni idrok etish, turkumlashtirish, baholash va anglash jarayonlarini o'rganish mumkin. Maqolada metafora xalqning milliy-madaniy xususiyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvistik hodisa sifatida lingvokognitiv, lingvomadaniy nuqtai nazardan tadqiq qilindi. O'zbek tilidagi "KO'NGIL" konsepti bilan ifodalangan kognitiv metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlari o'zbek adibi Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari misolida tahlil qilindi.

Kalit So'Zlar: *Kognitiv Metafora, Konsept, Lingvistik Hodisa, Lingvomadaniy Xususiyatlar.*

Linguocultural Features of Cognitive Metaphors in Uzbek Literary Texts

Abstract: The rhetorical value of a literary work's language, its ability to enhance the aesthetic appeal of speech, and its potential to increase artistic expressiveness are determined by how speakers of a language perceive the world in a unique way. As the central element of a literary text, the metaphor is more active than other artistic devices, shaping the creative and emotional impact of the work and ensuring its overall attractiveness. In traditional linguistics, particularly within the field of literary studies, artistic and poetic metaphor has been the primary object of research. Since the last decades of the past century, numerous studies in this area have demonstrated how deeply metaphor has permeated all aspects of human life. The development of cognitive science has significantly contributed to the formation of such approaches, and this study has been conducted within this framework. In cognitive science, the importance of metaphor lies in its understanding as a fundamental cognitive mechanism, with its linguistic representations reflecting mental structures in human consciousness. Therefore, metaphors provide a means to study processes of perception, categorization, evaluation, and comprehension of reality. A metaphor is shaped by the socio-cultural beliefs and attitudes of a particular culture. The article examines metaphor as a linguistic phenomenon that reflects the national and cultural characteristics and worldview of a people from a linguo-cognitive and linguocultural perspective. The national and cultural characteristics of cognitive metaphors expressed through the concept of "KO'NGIL" in the Uzbek language are analyzed using the example of the Uzbek writer Abdulhamid Cholpon's novel "Night and Day".

Key Words: *Cognitive Metaphor, Concept, Linguistic Phenomenon, Linguo-Cultural Features.*

Kirish

Mazkur maqola o'zbek adibi Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridagi "ko'ngil" konsepti orqali o'zbek badiiy matnlaridagi kognitiv metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Kognitiv metafora nazariyasi asosida insonning his-tuyg'ulari va kechinmalari manbai bo'lgan "ko'ngil" konseptining ma'naviy, madaniy va milliy jihatlarini madaniy mentallikni ifodalash vositasi sifatida o'rganilgan.

Maqolada metaforaning bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning eng ko'p o'rganilayotgan obyektlaridan biri sifatida til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatlari, "ko'ngil" konseptining o'zbek madaniyatida tutgan o'rni hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy o'zlik bilan aloqadorlik jihatlarini yoritib berilgan.

* Dotsent, Turon universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, G'arb tillari kafedrası, e-mail: xamidajuraqobilova@gmail.com

Tadqiqotning maqsadi Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridagi "ko'ngil" konsepti misolida o'zbek badiiy matnlaridagi kognitiv metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish, "ko'ngil" konseptini kognitiv, leksik-semantik va lingvomadaniy jihatdan o'rganish va asardagi "ko'ngil" bilan bog'liq metaforalarni aniqlash va ularning ma'no qatlamlarini ochib berishdan iborat. O'zbek badiiy matnlardagi kognitiv metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishda kognitiv, leksik-semantik hamda lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ma'lumki, inson miyasi mohiyatan o'zgaruvchan va nihoyatda yaratuvchandir. Unda har daqiqada kutilmagan jarayonlar va mexanizmlar sodir bo'ladi, lekin ular ko'pincha oldindan aytish mumkin bo'lgan o'xshashliklarni, taqqoslashlarni, solishtirishni keltirib chiqaradi. Biron narsa yoki hodisaning nomi tez fursatda nimasi bilandir birinchisini eslatadigan va unga o'xshash boshqa bir narsaning ma'nosiga aylanishi mumkin. Fanda bu mexanizm ma'no ko'chishi deb ataladi va uni metafora deb ham atash mumkin (Drujinin, 2016: 49-53). "Metafora har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, an'analari, urf-odatlarini, dunyoqarashini aks ettiradigan ko'p qirrali lingvistik hodisadir" (Juraqobilova, 2025: 51). Har bir til va madaniyat o'zining o'ziga xos tasavvurlari, qadriyatlarini, tarixiy tajribalari va ijtimoiy kontekstlariga ega bo'lib, ular metaforalar orqali ifodalanadi. Har bir madaniyatning asosiy qadriyatlarini asosiy tushunchalarning metaforik tuzilmalariga mos keladi va bu qadriyatlar mustaqil ravishda emas, balki ushbu madaniyatda ildiz otgan konseptual tizimga mos keladi.

Metafora nafaqat axborot uzatish, balki badiiy va estetik maqsadlarni ifodalash vositasi hamdir. Poeziya va badiiy adabiyotda metaforalar insonning his-tuyg'ularini ifodalash va o'zgacha estetik taasurol yaratish uchun ishlatiladi. Badiiy matnda kognitiv metaforalar insonning dunyoqarashi, hissiyotlari, ichki kechinmalari va madaniy tajribalarini ifodalash uchun qo'llaniladigan asosiy lingvistik vositalardan biridir.

Metafora gumanitar sohada olib borilgan tadqiqotlarning eng asosiy va ko'p organilgan "an'anaviy" obyektlaridan biri sifatida bugungi kunda ham zamonaviy lingvistikaning turli yo'nalishlarining ko'p o'rganilayotgan tadqiqot obyekti bo'lib qolmoqda. Metafora tarixiga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, bir tomondan, u inson tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladigan lingvistik hodisa sifatida, boshqa tomondan esa ma'no ko'chishining kognitiv jarayonlarini aks ettirishning vositasi sifatida tadqiq etilmoqda.

Metaforaning birinchi tadqiqotchilaridan bo'lgan Aristotel (1927: 68): "Eng tushunarli nutq umumiy iste'moldagi so'zlardan iborat bo'ladi, ammo juda oddiy bo'ladi. Yuksak va nafis nutq esa oddiy nutqqa xos bo'lmagan so'zlardan foydalanadi. Odatiy bo'lmagan so'zlarga glossalar, metaforalar, cho'zib aytiladigan ifodalar va odatiy nutqqa kirmaydigan barcha unsurlarni nazarda tutaman", deydi. Kvintilian metaforani "qisqartirilgan o'xshatish" deb atagan va metafora hamda o'xshatish o'rtasidagi farqni quyidagicha izohlagan: "O'xshatishda biz tasvirlamoqchi bo'lgan predmet nima bilandir qiyoslanadi, metafora esa o'sha predmetning nomi o'rnida qo'llaniladi. Agar biz odam haqida, u biron narsani sherdek (kak lev) qildi desak, bu - o'xshatish, agar "u - sher" (on - lev) desak, bu - metafora" (Kvintilian, 1936: 218-219). Sitseron metaforani dastlab tilning lug'at tarkibi qashshoqligi zaruratidan paydo bo'lgani, keyinchalik esa go'zalligi va jozibasi sabab uning qo'llanish ko'lamini kengayganligini ta'kidlaydi. U metaforani "bir so'zgagina qisqargan o'xshatish", deya ta'riflaydi (Sitseron, 1936: 216). Ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gasset (1990: 69) metaforani "ongning ajralmas quroli, ilmiy tafakkurning shaklidir", deb ataydi.

O'zbek tilshunosligida ham so'zlarning ko'p ma'noligi, ko'chma ma'nolarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Shu o'rinda taniqli tilshunos olim M.M.Mirtojiyevning so'zning ko'p ma'noligi, unga yondosh hodisalar va ularning yuzaga kelish sabablariga oid tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim. Olim so'zning leksik ma'nosi ikkinchi bir leksik ma'noni hosil qilish hodisasini "hosila" deb ataydi va hosila ma'no yuzaga

kelishining beshta ko‘rinishi *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa*, *vazifadoshlik*, *tobelilikni* sanab o‘tadi. U metaforani hosila ma’no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli deb hisoblaydi (Mirtojiyev, 2010: 76-94). Tilshunos olim B.Mengliyev leksemalarning semantik ko‘lamini tahlil qilar ekan, tilda o‘xshash va o‘zaro bog‘liq tushunchalarni ifodalash zaruriyati har bir yangi narsa yoki tushunchani ifodalash uchun yangi leksema “kashf qilmay”, mavjud leksemalardan foydalanishni taqozo qilishini tilda amal qiluvchi tejam qonuniyati bilan bog‘laydi va ularni leksemaning bosh sememasiga nisbatan “hosila sememasi” deb ataydi. Olim hosila sememasining vujudga kelishining metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabi to‘rtta usuliga to‘xtalib o‘tadi. “Metafora - narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘xshashlik asosida biror leksemaning o‘z xususiy ifodalanmishidan boshqa narsa va hodisalarni atash uchun ishlatilishi”, deya ta’kidlaydi tadqiqotchi (Mengliyev, 2018: 155-157).

Metaforani tushunish Aristotelning “nutq shakli” haqidagi tushunchalaridan buyon bugungi kungacha sezilarli evolyutsion rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Jerar Szymanskning (2014: 6) fikricha “Metafora bizni haqiqatdan uzoqlashtirgandek tuyuladi, aslida u bizni haqiqatga yaqinlashtiradi. U biz ko‘p mehnat evaziga o‘rganishimiz kerak bo‘lgan ikkinchi til emas, balki biz gapirayotgangan birinchi ona tilimizdir”. Professor Jamol Jalolov (2012: 342) ta’kidlaganidek: “Aslida, ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o‘taydigan birinchi tildir.”

Kognitiv metaforalar nazariyasiga asos solgan amerikalik tilshunos olim J.Lakoff va mashhur faylasuf M.Jonsonlarning (2004: 256) ta’kidlashicha: “... konseptual metafora bu shunchaki stilistikaning metodi bo‘libgina qolmasdan, tafakkur va fikrlashning usulidir”.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, metafora shunchaki nutqning bezagi, tilning qo‘shimcha mexanizmi emas, balki insonlarning hayotiy tajribalari davomida shakllanadigan nutqiy qobiliyati, ongu tafakkuri darajasining mahsulidir. Bir so‘z bilan aytganda, “til o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforadir”.

Biz quyida o‘zbek adibi Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlarini “KO‘NGIL” konsepti orqali ifodalangan metaforalarda madaniy mentallikni ifodalash vositasi sifatida ko‘rib chiqamiz. Asarni kuzatish natijasida, undagi matnlarda insonning his-tuyg‘ulari va kechinmalari manbai bo‘lgan “ko‘ngil” konsepti rang-barang ifodalarga ega ekanligi ko‘rish mumkin. Bu, avvalo badiiy adabiyotning bosh maqsadi inson va uning his-tuyg‘ulari va kechinmalarini tasvirlash ekanligi bilan izohlanadi. Asar qahramonlarining minnatdorchilik, xursandchilik, quvonch, sog‘inch, tuyg‘ulari ham, baxtsizlik, iztirob, qayg‘ulari ham aynan “ko‘ngil” konsepti orqali kitobxonning yuragiga yetib boradigan tarzda ifodalanganligining guvohi bo‘lish mumkin. Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul ta’kidlaganidek: “Sharq adabiyotining oftobi ko‘ngil, desa xato bo‘lmas. Chunki ko‘ngil va ko‘ngil bilan bog‘liq tuyg‘u hamda tushunchalar chetga surilsa, umuman adabiyot behad qashshoqlashib qoladi. Ko‘ngil hukmidagi umr bir qadar dardli, iztirobli, ammo fayzli, hayot nafasi gurkiraydigan umr (Xurshid Davron Kutubxonasi, 2015)”. O‘zbek adabiyotining noyob iste’dod sohiblaridan bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon ham “Kecha va kunduz” romanini asar qahramoni Zebining kayfiyatini, holatini ifodalash va uni bahorga qiyoslashda aynan “ko‘ngil” konseptiga murojaat qildi:

- Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana **ko‘ngillarni** qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi (Cho‘lpon, 2019: 6).

Biz mazkur asar tahlilida shodlik, qayg‘u, sog‘inch, iztirob kabi konseptlarning matn orqali ifodalanishida tasvirning to‘laonli bo‘lishini ta’minlagan “KO‘NGIL” konsepti bilan ifodalangan yuzga yaqin kognitiv metaforalarni uchratdik. Biz o‘z tahlillarimizda konseptual metafora asoschilari J.Lakoff va M.Jonsonlarning “Metaphors We Live By” asaridagi “THE MIND IS A BRITTLE OBJECT” (KO‘NGIL BU – MO‘RT OBYEKT) metaforik modeliga

tayandik (Lakoff va boshqalar, 2004: 256). Chunki so'nggi yillarda metaforik jarayonlarni modellashtirishda modellashtirish usuli kognitiv tilshunoslikning eng dolzarb metodlardan biri hisoblanmoqda.

“KO'NGIL BU – MO'RT OBYEKT” kabi metaforalar tadqiqotchilar aytib o'tganidek, o'zbek madaniyatida ham insonning ichki dunyosi modelining ajralmas qismidir. Ko'pchilik shu model tilida o'ylaydi va harakat qiladi. Bizning madaniyatimizda shu model asosidagi “ko'ngli juda nozik”, “nozik qalb”, “ko'ngli nimjon”, “yumshoq ko'ngil”, “siniq ko'ngil” kabi ko'plab metaforalarni uchratish mumkin. Biz quyida “ko'ngil” kontseptini *idish, konteyner, obyekt* kategoriylari bilan bog'liq holda cheklangan makonni ifodalash uchun ishlatiladigan kognitiv metaforalarni tahlil qilishga harakat qildik. Bu metaforalar asar qahramonlarining ruhiy holati va ichki kechinmalarini tasvirlashga xizmat qiladi.

KO'NGIL BU – IDISH/ KONTEYNER

1. Albatta, bolam, qazoga chora yo'q. Shunday bo'lsa ham **ko'ngil to'lib ketganda**, chidamay gapirasan-da, odam... Ikkovi ham jim qolib, o'z ishlariga berildilar. Birozdan so'ng kampir kuyinishdan bosilib oddiy ovoz bilan so'radi:

- Eshon bobom nimaga chaqirtirdi ekan? Kelgan odam aytmadimi? (Cho'lpon, 2019: 106)

Yuqoridagi jumlada adib asar qahramonlaridan biri Qurbonbibining turmush o'rtog'i Razzoq sufining hatti-xarakati va oiladagi ayollarga bo'lgan munosabatidan kuyinib, qizi Zebiga qilgan shikoyatini ifodalashda “*ko'ngil to'lib ketganda*” metaforasini qo'llagan. Keltirilgan jumlada “ko'ngil” moddiy predmet, ya'ni idish, konteyner sifatida tasvirlangan, guyoki uni *to'ldirish* mumkin bo'lgan bir obyekt.

Keyingi jumlalarga e'tiboringizni qaramoqchimiz:

2. Shoshmang! Eshon buvamga borib dod deyman! Ori rost, bir bo'lgan ishni endi buzdirish mumkin emas-ku-ya, ishqilib sizdan dod deb bir **ko'nglimni bo'shatmasam** bo'lmaydi (Cho'lpon, 2019: 112).

3. U yerda ko'p o'tirmadi. Biroz hasratlarini aytib, **ko'nglini bo'shatgandan** keyin, Kichkina mittidan foydalanish to'g'risida bir-ikkita maslahat ko'rsatib, onasinikiga ketdi (Cho'lpon, 2019: 118).

Yuqoridagi matnlarda “ko'ngil” guyoki misoli bir idish, to'lib ketganda uni *bo'shatish* mumkin bo'lgan moddiy predmet sifatida ifodalanganki, inson ko'ngil iztiroblarini kimgadir aytgandan so'ng, xuddi idish singari uni bo'shatib, yengil tortishi mumkin.

4. Mingboshining **ko'ngliga darhol iztirob tushib ulgurgan edi**. Shunday yaxshi bir xabardan keyinga qoldirilgan arz, albatta, xayriyatdan gapirmaydi (Cho'lpon, 2019: 96).

Keyingi keltirilgan jumlada adib insonning his-tuyg'ularini ifodalovchi “iztirob” mavhum tushunchasini jonlantirgan, u ko'ngilga tushush mumkin bo'lgan moddiy narsa, “ko'ngil” esa unga nimadir tushushi mumkin bo'lgan moddiy obyekt sifatida talqin qilingan. Yozuvchi insonning ko'ngil kechinmalarini “**ko'ngliga darhol iztirob tushib ulgurgan edi**” metaforasiga mohirona ko'chirgan.

Asarda “KO'NGIL BU – MO'RT OBYEKT” modeli asosida ham ko'plab metaforalarni uchratish mumkin. Biz quyida ularning ayrimlarini tahlilga tortmoqchimiz:

1. Faqat narigi - kichik kundosh, mingboshining kumush kamarida eng a'lo naqsh bo'lib yonib turganda, bu zararsiz kundoshing haqligini iqrar qilib va uning **siniq ko'nglini** ovlash, shu bilan uni qo'lga olmoq, hozir ikkala xotin uchun baravar kundosh bo'lgan kichik xotinga qarshi o't ochmoq lozim edi (Cho'lpon, 2019: 48).

2. Ona, yolg'iz ona... Johil va bag'ritosh bir otaning chegarasiz qaysarligi teskariligi oldida ojiz bir xotin... **nimjon bir ko'ngil** (Cho'lpon, 2019: 80).

3. U vaqtda aldamoq uchun so'z topiladimi? Yosh qizning “qars” eta yorilishi mumkin bo'lgan **ko'ngil shishasini yamash uchun** onaning tadbir sandig'ida hech narsa topiladimi? (Cho'lpon, 2019: 100).

4. Hech bo'lmasa, uning **ko'nglini o'ldirma!** Umidini sindirma. U senga odam, deb qaraydi "xaridor" degan fikrini tashladi, tashlata olding (Cho'lpon, 2019: 140).

5. Zerikdim bo'laringdan.... **ko'nglimga o'rdi.** Yur, ketaylik! (Cho'lpon, 2019: 156).

6. Xazon vaqti... tabiat asta-sekin o'lib boradi... Shunday-da, mening **o'luk ko'nglim tirildi.** Yana o'lish uchunmi? (Cho'lpon, 2019: 200).

Yuqoridagi jumalarda adibning mahoratini "ko'ngil" idish kabi *sinishi, nimjon, zaif bo'lishi, u o'lishi, tirilishi, ko'ngilga o'rishi* mumkin bo'lgan mo'rt obyekt sifatida tasvirlangan metaforalarda ko'rish mumkin. "KO'NGIL BU – MO'RT OBYEKT" modeli asosidagi metaforalar asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari aks ettirish imkonini bergan.

Adibning mahoratini keyingi jumalarda asar qahramonlarining baxtsizlik, qayg'ulari ham aynan his-tuyg'ulari va kechinmalari manbai bo'lgan "**ko'ngil**" konsepti orqali kitobxonning yuragiga yetib boradigan tarzda ifodalanganida ko'rish mumkin:

1. Javobning birdaniga berilmagani, so'ngra bu "hech" degan ma'nisiz javob Zebining tashvishga tushgan **ko'nglini** battar **tashvishlantirdi.** (Cho'lpon, 2019: 108).

2. **Yuragi** yomon **g'ash bo'lib ketganidan** keyin chiday olmasdan, kampirga aytib ko'rdi (Cho'lpon, 2019: 32).

3. Ming qatla shukurku-ya.... O'z boshingizdan o'tgan, bilasiz, **ko'ngilni timtalagan bir narsa bor** (Cho'lpon, 2019: 48).

Adib "ko'ngil" konsepti orqali birinchi jumlada *tashvishlantirmoq*, ikkinchi jumlada *g'ash bo'lib ketmoq*, uchinchi holatda *timtalamoq* so'zlari bilan biriktirib fazoviy yo'nalishga ega bo'lgan metaforalarni hosil qilgan. Yozuvchi bu metaforalarda o'z qahramonlarining ichki kechinmalarini juda chiroyli qilib tasvirlagan.

Xulosa

Amerikalik olimlar Lakoff va Jonson fikriga ko'ra, metaforalar konseptual xususiyatga ega bo'lib, ular mavhum tushunchalarni tasvirlash va tushunishning asosiy mexanizmini tashkil qiladi. Ontologik metafora mavhumlikning mavjudlikka aylanishini ta'minlovchi konseptual metafora turidir. Ular insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qilish tajribasini tushunish mexanizmi va shakllangan bilimlarni aqliy tartibga solish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Kognitiv metaforani o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, tahlillar shuni ko'rsatadiki, metafora madaniy-kognitiv xususiyatga ega lingvistik hodisa sifatida insonning fikrlash qobiliyati, uning tafakkur darajasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini ifodalaydigan eng zarur ham lisoniy, ham mental vositadir. Shuning uchun, konseptual metaforalar tadqiqi insonning o'z-o'zini anglashi va dunyoni idrok qilish uchun muhimdir.

Insonning his-tuyg'ulari va kechinmalari manbai bo'lgan "ko'ngil" konsepti o'zbek madaniyatida baxt, xursandchilik, ham baxtsizlik, qayg'u kabi his tuyg'ularni ifodalaydi. Shuning uchun, metaforalarni tadqiq qilish, insonning o'z-o'zini anglashi va dunyoni idrok qilish uchun muhimdir. Ular bilim, his-tuyg'u va to'g'ri yo'nalishlarni belgilashda xizmat qiladi. "Lisoniy metafora - anchagina bema'lol tarzda semantik munosabatga kirishadigan mustaqil leksik birlik, badiiy metafora har doim kontekst bilan bog'liq bo'lib, leksik mustaqillikka ega emas (Arutyunova, 1999: 896)".

ADABIYOTLAR

Aristotel (1927), *Poetika*, Leningrad, ACADEMIA.

Arutyunova, Nina Davidovna (1999), *Yazik i mir cheloveka*, Moskva: Nauka

Cho'lpon, Abdulhamid (2019), *Kecha va kunduz*, Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat.

Drujinin, Aleksandr Vasilyevich (2016), "Angliyskiy perfekt: ponyat i obyasnit", *Inostranniye yaziki v shkole*, 2: 49-53.

Jalolov, Jamol (2012), *Chet til o'qitish metodikasi*, Toshkent: O'qituvchi.

- Juraqobilova, Hamida Xolmatovna (2025), “Kognitiv metaforalar tarjiması: konseptual va madaniy tafovutlar talqini”, *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5/1: 51-59.
- Kvintilian, Mark Fabiy (1936), *Antichniye teorii yazika i stilya* (pod obshey redaksiyey O.M.Freydenberg), Leningrad.
- Lakoff, Djordj, Djonson, Mark (2004), *Metafori, kotorimi mi jivem*, Moskva: Yeditorial URSS.
- Mengliyev, Baxtiyor (2018), *Hozirgi o'zbek tili*, Toshkent: Tafakkur Bo'stoni.
- Mirtojiyev, Miraziz (2010), *O'zbek tili semasiologiyasi*, Toshkent: Mumtoz so'z.
- Sitseron, Mark Tulliy (1936), *Antichniye teorii yazika i stilya* (pod obshey redaksiyey O.M.Freydenberg), Leningrad.
- Szymansk, Gérard (2014), *La métaphore, voie royale de la communication*, Paris: Inter Éditions.
- Xose Ortega-i-Gasset (1990), *Dve velikiye metafori, Teoriya i metafori*, Moskva: Progress.
- Xurshid Davron Kutubxonasi (2015), “Ibrohim Haqqul. Adabiyotning oftobi – ko'ngil”. Kirish sanasi: 05.04.2025, <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-haqqul-adabiyotning-oftobi-kongil.html>